



# XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## TALABALARGA INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Azzamov Yusufjon Radjaboy o'g'li,**  
*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti dekani*  
*Email: [yu.azzamov@gmail.com](mailto:yu.azzamov@gmail.com)*

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15202216>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolaning asosiy vazifasi tarjima va pragmatika sohalarini o'zaro bog'liqligini tahlil qilish hamda tarjima pragmatikasining o'ziga xos jihatlarini belgilashdan iborat. Maqolada tarjima va pragmatika o'rtasidagi munosabatlar ko'rib qilgan bo'lib, tarjimonning pragmatik xususiyatlardan foydalanib asl ma'noni tushunish va uni to'g'ri tarjima qilish jarayoni ko'rib chiqilgan. So'ngi yillarda tilshunoslar e'tiborini o'ziga tortgan tilning pragmatik xususiyatlari, tarjimondan lingvistik bilimdan tashqari boshqa fanlar, shu bilan birga madaniyatlar ma'lumotlaridan ham bohabar bo'lishni dolzarb masala sifatida hisoblamogda. Tarjimada pragmatik xususiyatlardan bohabar bo'lish va tarjimaning pragmatik jihatlariga e'tibor berish ma'noni asl holida to'g'ri tarjima qilishni ta'minlaydi. Ushbu ilmiy maqolamizda tarjimonning aynan shu jihatlarini haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Pragmatika, pragmatik salohiyat, retseptor, asliyat, pragmatik adekvatlik, ekvivalent tarjima.

**KIRISH.** Tarjima jarayonini sifatli amalga oshirish bir necha fanlar bilan bog'liq bo'lib, bularga lingvistika, madaniyatshunoslik, qiyosiy etimologiya, qiyosiy sotsiologiya kabi fanlarni misol sifatida aytishimiz mumkin. Tarjima jarayoni ikki muhim bosqichdan o'tadi, bu -ma'no kasb etuvchi gaplarni tarjima qilish va tagma'noga ega gaplar, iboralar tarjimasini amalga oshirish hisoblanadi. Aynan ushbu jarayon tarjimonga tarjima qilish jarayonida tarjimaning pragmatik jihatlariga e'tibor qaratishi kerakligi talabini qo'yadi. Bugungi kunda tarjimon talabalarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantrish mavzusining dolzarligi ham aynan shu talabni bajarish, bu bilan esa yozma va og'zaki tarjima sifatini oshirish hisoblanadi. Tarjima jarayonida tarjimonning madaniyatlararo bilimga ega bo'lishi, tarjimaning pragmatik jihatlariga e'tibor berib, tarjima matnini tarjima qilishi tarjima jarayonida juda muhim bo'lib, tarjimonda bunday ko'nikmalarning shakillanmaganligi, tarjima jarayonida bir necha muammolar keltirib chiqaradi va tarjimaning noto'g'ri qilinishiga olib keladi. Shu sabab, tarjimon tarjima jarayonida ma'lumotni to'g'ri yetkazib berish uchun umummadaniy pragmatik bilim va ko'nikmalardan bohabar bo'lishi, tarjimaning pragmatik xususiyatlaridan to'g'ri foydalanishi lozim bo'ladi. Avvalo tarjima maqsadi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, tarjima maqsadi bu chet tilidagi material asosida yaratilgan matnni o'z ona tilidagi materiallar yordamida



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

qaytadan yaratish. Buning uchun tarjimon, avvalo, asl nusxani to'liq anglab yetishi, keyin esa uni o'z tilida mukammal ifodalashi lozim. Muallif yaratgan badiiy-estetik olamni to'liq tushunish uchun tarjimon keng fikrlashga ega bo'lishi va badiiy asar tarkibidagi til vositalarining ma'noviy va uslubiy-estetik tomonlarini to'g'ri tushunishi, shuningdek, muallifning asosiy g'oyasi, uning istak va niyatlarini aniq tasavvur etishi zarur. Yakunda tarjimon tomonidan qilingan tarjima xuddi asl nusxa o'quvchiga qanday badiiy-estetik zavq bersa, uning tarjimasi ham asarni aslida o'qiy olmaydigan o'quvchiga shunday taassurot qoldirishi lozim. Kitobxon tarjimadan zavqlanmasa, uni muallifning sifatsiz asari deb hisoblaydi, ya'ni noto'g'ri tarjima o'quvchini chalg'itadi. Tarjimonning asosiy maqsadi bu asl bo'lgan matn va tarjima tillarining so'z boyligi, grammatikasi hamda uslubidagi o'xshashlik va farqlarni yaxshi bilgan holda, asarning mazmuni va shaklini ona tili orqali to'liq yetkazishdir. Ushbu qoidaga amal qilmaslik, tarjimada aniqlikni buzilishiga olib keladi. Agar asliyat muallifidan voqelikni to'g'ri aks ettirishni talab etsa, tarjimondan asli nusxani mukammal tarzda ifodalashni talab etadi. Tarjima qilishda ikki bosqich yuz beradi, birinchi - tarjima qilinayotgan asarni tushunish va talqin qilish. Bu ish ona tilida amalga oshiriladi. Ikkinchi - tarjima qilinayotgan tilda to'g'ri ifoda vositalari, ya'ni so'z, ibora va grammatik tuzilmalarni tanlash zarurati bosqichi hisoblandi. Tarjimondan tarjima asliga mosligini ta'minlash maqsadida til vositalarini qiyosiy o'rganish, badiiy matnning estetik jihatlarini, uning moddiy-mantiqiy, emotsional ta'sirchan va obrazli tuzilishini tashkil etuvchi elementlardagi uslubiy va pragmatik xususiyatlarni aniqlash, shuningdek stilistikaga tayanib ish ko'rishni taqozo etadi. Til birliklarining uslubiy rang berish xususiyati, har xil tillar birliklarining mazmuniy-ustlubiy va pragmatik jihatdan bir-biriga mos kelish-kelmasligi to'g'risida yakuniy qaror chiqarish imkonini beradi. Tarjimaning bu kabi tahlili, shu sohaga oid tasavvurlar va qarashlarni kengaytiradi. Ular nafaqat tilshunoslikka oid, balki til ma'lumotlari tarkibidan tashqari bo'lgan psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, milliy-tarixiy va boshqa bir qator jihatlarini qamrab oladigan pragmatik, til bilan bog'liq bo'lmagan omillarni, shu bilan birga muloqot qiluvchilarning yetarli bilim darajasini ham hisobga oladi. Bunday tadqiqot usuli asardagi til birliklarining vazifaviy-pragmatik ahamiyatini va ularning muayyan matniy holatlarda adekvat o'girilish imkoniyatlarini imkon qadar tadqiq qilish zaruratini tug'diradi.

Tillararo muloqotning alohida turi bo'lmish tarjima turli tillar matnlarining mazmunan teng qiymatliligini taqazo etadi. Asliyat va tarjima matnlari mazmunining o'zaro mos kelishi zarurligi ekvivalentlik tarjimaning asosiy sharti ekanligini ko'rsatadi. Tarjima amaliyoti sirlarini mukammal egallagan va uning nazaryasi bilan



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

puxta qurollangan tarjimongina asliyatga mos bo'lgan pragmatik jihatdan mos keladigan ekvivalent tarjimalar yarata oladi.

**ASOSIY QISM.** XX asrning 50-yillaridan keyin tilshunoslikka pragmatik yondashish keng tus oldi. Pragmatika - pragmatik lingvistika, pragmalingvistika, pragmafonologiya, pragmafonetika, pragmagrammatika, pragmasintaksis kabi yangi tushuncha va atamalar fanga kirib keldi. Bu tushuncha-atamalar ostida esa til hodisalariga yangicha yondashish, ularni yangicha talqin qilish bilan bog'lik bo'lgan yangi tushunchalar va tahlil usullari keng ommalashdi.

Pragmatika tarjimada muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi yunoncha «pragma» so'zidan tarjima qilinganda ish, harakat ma'nolarini bildiradi. «Pragmatika» termini 30 yillarning oxirida Ch. U. Morris tomonidan semiotikaning bir bo'limi sifatida talqin qilingan.

Ba'zi manbalarda pragmatika falsafiy tushuncha sifatida fanga kirib kelganligi aytib o'tiladi. Jumladan, "Pragmatika aslida falsafiy tushuncha bo'lib, u Sokratdan oldingi davrlarda ham qo'llanilgan va keyinchalik uni J. Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar" degan qarashlar mavjud. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30 yillarida pragmatizm g'oyalarining keng targ'ibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada bu targ'ibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak [1, 40-41b]. Emperik tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, semantika nutqning ijtimoiy lingvistik va boshqa nolingvistik komponentlarini yetarli darajada tushuntira olmasligi pragmatikaning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shunga ko'ra pragmatika qaysidir ma'noda sotsiolingvistika va semantika bilan ish olib boruvchi tadqiqotning yangi sohasidir.

Matnlarni avtomatik tahlil qilishda malum bir vaziyat haqidagi bilimlarni yaratuvchi va matn mazmunini to'g'ri tushunishga imkon beruvchi ensiklopedik ma'lumotlar, shuningdek, pragmatik ma'lumotlar senariy yoki qolip ko'rinishida amalga oshiriladi. Pragmatika ritorika, stilistika, nutq nazariyasi va tipologiyasi, nutq faoliyati, sotsiolingvistika, psixolingvistika va shu kabi doiralarda uzoq o'rganilgan juda ko'p muammolarni o'z ichiga olgan. Pragmatika nutq va axloqiy, insoniy xatti-harakat, ruhiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ko'plab fanlarning kesishmasida amalga oshadigan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Pragmatika struktur tilshunoslik, stilistika, nutq madaniyati, poetika va lingvopoetika, psixolingvistika, etika va estetika singari fanlar bilan, umuman insonning ongli va ongsiz madaniy hamda tabiiy xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan madaniyatshunoslik degan umumiy nom bilan birlashadigan



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

fanlarning har biri bilan chambarchas aloqada hisoblanadi. Tarjimaning aslyatdagi ma'lumotning ijtimoiy-madaniy konteksti, tarjima matnini o'quvchiga moslashtirish va aniqlashtirishga tayyorligi Laypsix maktabining pragmatik elementlar ta'rifida ko'rib chiqilgan.

Pragmatik salohiyat – bu matndagi ma'lumotning retseptorga pragmatik ta'sir o'tkazishidir, ya'ni matnda aks ettirilayotgan ma'lumot retseptorning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatishi, muayyan emotsional reaksiya uygotishi va shu kabi hokazo ta'sirlar hisoblanadi.

Har qanday matnning pragmatik imkoniyatlarini aks ettirishda tarjimonlar ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Misol uchun, o'zbek tilini chet tiliga tarjima qilishda tilimizdagi oqibat, mehr-muhabbat, shafqat kabi, bir-birini mazmunan to'ldiradigan iboralarni misol qilish mumkin. Qanchalik qiziq bo'lmasin, bu iboralarni boshqa tillarga tarjima qilishning o'zi ham qiyinchilik tug'diradi. Ayniqsa, badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjimonlar anchagina muammolarga duch keladi. Tarjima o'quvchi tomonidan to'g'ri qabul qilinishi uchun tarjimondan asl nusxa va tarjima matni orasidagi pragmatik ma'noni to'g'ri ifodalash uchun tarjima jarayonida ekvivalent tarjimadan foydalanish talab etiladi. Retseptorning matnga nisbatan pragmatik munosabati nafaqat matn pragmatikasi, balki retseptorning kimligi, uning shaxsiy xususiyatlari, bilimlari, oldingi tajribasi, ruhiy holati va boshqa xususiyatlarga bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Tarjimon tarjima ishining birinchi qismida asli nusxaning qabul qiluvchisi vazifasini o'taydi va matnda bor ma'lumotlarni to'liq qabul qilishga harakat qiladi. Buning uchun esa u asli til vakillari biladigan birlamchi bilimlariga ega bo'lishi, ya'ni o'sha tilda gapiruvchi xalqning tarixi, madaniyati, adabiyoti, udumlari, zamonaviy hayoti, faqat o'sha millatga xos bo'lgan so'zlar, ya'ni realiyalarni bilishi lozim. Har qanday qabul qiluvchi kabi tarjimonda ham berilayotgan ma'lumotga o'zining shaxsiy qarashi paydo bo'ladi. Lekin tarjimon bu shaxsiy munosabat tarjima sifatiga ta'sir qilmasligiga urinishi kerak. Shu sababli tarjimon pragmatik nuqtai nazardan betaraf bo'lishi lozim. Tarjima jarayonida tarjima qilingan matn o'qishda o'quvchi asl matn so'zlashuvchilari bo'lmish til vakillari va ularning madaniyatiga oid birlamchi bilimlarga ega emasligi, asli nusxada ko'zda tutilgan ma'lumotni to'liq ochib berish zaruratini keltirib chiqaradi va tarjima matniga qo'shimchalar va tushuntirishlar kiritishni taqozo etadi. Pragmatik adekvatlikni ta'minlash uchun so'zlovchilar tomonidan ishlatiladigan hududiy-dialektga, ijtimoiy-dialektga xos bo'lgan va o'zgargan nutq kabi sotsiolingvistik omillarning ishlatilishi ham muhim rol o'ynaydi.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Tarjima asliyatdan retseptorga (kitobxonga) tushunarli bo'lgan muayyan bir axborotni uzatish vositasidir. Retseptor matnni o'qib qabul qilar ekan, o'z navbatida u axborotni qabul qiluvchidir. Axborotni qabul qiluvchi matnni o'qish jarayonida unda matnda ifodalangan axborotga nisbatan muayyan bir munosabat hosil bo'ladi. Bu munosabat pragmatik munosabat deb yuritiladi. Bunday munosabatlar turlicha xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ular ko'pincha intellektual xarakterga ega bo'lib, u retseptor uchun qiziq tuyulmaydigan, unga taalluqli bo'lmagan axborotlardan tashkil topgan bo'lishi va ayni paytda qabul qilingan axborot unga juda kuchli emotsional ta'sir qilib, uni muayyan bir niyatlarga yo'naltirishi ham mumkin. Matnning axborot qabul qiluvchida uyg'otgan bunday kommunikativ ta'siri, ya'ni pragmatik munosabati matnning pragmatik aspekti yoki salohiyati deb ataladi.

Matnning pragmatik xususiyati ham tarjimada muhim bo'lib, matnning pragmatik xususiyati muallif tomonidan alohida tanlangan til vositalaridan iborat: leksik va sintaktik, hamda uslubiy birliklar. Asl matn o'zining kommunikativ maqsadiga erishish uchun axborotni yanada ta'sirli qiladigan til vositalarini tanlaydi. Natijada, bu kabi maqsad bilan yaratilgan matn ma'lum pragmatik kuchga ega bo'ladi va axborotni qabul qiluvchiga ta'sir ko'rsatadi. Matnning pragmatik imkoniyati axborotning mazmuni va shakli bilan ifodalanadi, ular tilda mavjud ifoda vositalaridir va muallif ulardan faqat o'z o'rnida foydalanadi. Bir xil qo'shiq turli kishilarga turlicha ta'sir qilganidek, retseptorning qabul qilayotgan axborotiga munosabati ham turlicha bo'ladi. Axborot qabul qiluvchining axborotga nisbatan paydo bo'ladigan pragmatik munosabatlari nafaqat matnga, balki qabul qiluvchi - retseptorning shaxsiga, birlamchi bilimlariga, hayotiy tajribalariga, ruxiy holatiga va boshqa shu kabi xususiyatlariga ham bog'liqdir. Demak, matnning pragmatik va kommunikativ ta'siri turli saviyadagi kishilarga turlicha ta'sir qilish orqali ham belgilanishi mumkin. Shunday ekan asliyatga mos ravishdagi pragmatik munosabatlarni o'rnatish tarjimondan tarjima jarayonida asliyatga mos til vositalarini tanlashi zaruratini keltirib chiqaradi. Tarjima jarayoniga va uning natijasi asl nusxaning pragmatik ma'nosini qayta yaratish zarurati, axborotni qabul qiluvchi shaxsga, o'quvchiga, istalgan ta'sirni o'tkazishga bo'lgan say-harakat tarjimaning pragmatik aspekti yoki tarjima pragmatikasi deb ataladi. Tarjima jarayonining birinchi bosqichida tarjimonning o'zi axborotni qabul qiluvchi sifatida matndagi axborotni iloji boricha ko'proq tushunishga harakat qilishi lozim. Buning uchun u asliyat tilida mavjud bo'lgan barcha birlamchi bilimlardan xabardor bo'lishi lozim. Shu sabab tarjimaning muvaffaqiyati tarjimondan tarjimaning asl matni mansub bo'lgan



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

xalqning tarixi, madaniyati, adabiyoti, urf-odatlar va ananalaridan, shu bilan birga turmush tarziga oid bilimlarni chuqur va har tomonlama o'rganishini talab qiladi.

Tajima jarayonida aslyatdagi voqea-hodisalarni axborot sifatida qabul qiluvchi har qanday kitobxon sifatida tarjimonda ham ularga nisbatan shaxsiy munosabatlar yuzaga keladi. Tillararo kommunikatsiyaning vositachisi sifatida tarjimon bu voqea-hodisalarga nisbatan shakllangan munosabatlarini neytral saqlashi, bu munosabatlar aslyatda ifodalangan voqea-hodisalarning haqqoniyligiga putur etkazmaslikka urinishi lozim. Shu nuqtai nazardan tarjimon pragmatik betaraf pozitsiyani egallashi lozim. Tajima jarayonining keyingi bosqichida tarjimon aslyatda ifodalangan voqea-hodisalarni o'quvchiga ona tilidagi tushunarli til vositalari orqali qayta yaratishga intiladi. Bu o'rinda u o'quvchining asl matn tili xalqlariga nisbatan o'zgacha bilimlarga, o'zgacha hayotiy tajribalarga, o'zgacha tarix va madaniyat vakili ekanligini hisobga olmog'i lozim.

Tajima jarayonida tillararo, madaniyatlararo nomuvofiqliklar tarjima tilini aniq, tushunarli bo'lishligini ta'minlay olmasa, tarjimon bunday to'siqlarni oldini olish choralari qidiradi, matnga tegishli o'zgartirishlar kiritishga majbur bo'ladi. Tajima jarayonida o'quvchi kitobxonda tarjima asl nusxasi oid til vakillari haqida birlamchi bilimlarining yetishmasligi tarjimonga axborotning ma'lum bir qismini eksplitsit ya'ni, ochib berish usulida bayon qilishga, matn mazmuniga qo'shimchalar, izohlar kiritishga majbur qiladi. Bu ayniqsa aslyatda semantik ma'noga ega bo'lgan ism va familiyalar tarjimasida, geografik atamalar, turli tuman madaniy-maishiy realiyalar tarjimasida ko'proq uchraydi. Masalan, Angliyadagi geografik o'rinlarni ifodalovchi Oxfordshire, Cambridge, Amerikadagi Oklahoma, Virginia, yoki Kanadadagi Alberta, Manitoba va shunga o'xshash geografik nomlarni ifodalashda ularning oldiga graflik, shtat, provinsiya kabi so'zlarni qo'shib tarjima qilinmasa, bu geografik joy nomlarini ifodalovchi so'zlar o'zbek kitobxoniga tushunarli bo'lmasligi mumkin.

**XULOSA.** Tarjima - sertarmoq, murakkab faoliyatdir. U insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. Tarjima tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini ochiq-oydin tasavvur etamiz. Tarjima xalqlar o'rtasidagi "qudratli quroldir". Bu "qurol" ni ishga tushiradigan vosita esa pragmatikadir. Pragmatika - tarjimada muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, pragmatikaning asosiy vazifasi - bu aslyatda ifodalangan ma'no-mazmunni tarjimada ham xuddi shunday mazmunda yetkazishdan iborat. Agar aslyat matnining asosiy vazifasi biror axborotni yetkazishdan iborat bo'lsa, o'sha axborotning tarjimada to'g'ri va aniq ifodalanishini pragmatika ta'minlaydi. Ikki kishi o'rtasida kechayotgan muloqotni keyin kelib qo'shilgan uchinchi kishi tushunmaganidek, tarjima matnini qabul qiluvchi ya'ni, retseptor ham



# XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

asliyatdagi matn mazmunini asliyat tilida o'qisa tushunmasligi mumkin, ammo tarjima va unda aks ettirilgan pragmatika yordamida u asliyatni angelaydi. Pragmatika – bu asliyat va tarjima o'rtasidagi “ko'prikdir”. Bu ko'priknining “quruvchisi” esa tarjimondir. Asliyat va tarjima o'rtasidagi “ko'prikn”ning mustahkam yoki mo'rt bo'lishi tarjimonning mahorati va bilimiga bog'liq. Shu sabab, tarjimonlarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda tarjima sohasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Safarov. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – 40-41-bet.
2. Авербух К. Я., М. О. Карпова. Лексические и фразеологические аспекты перевода - М., Академия, 2009. - 174 с.
3. Азнаурова Е. С. Прагматика художественного слова. – Ташкент, 1988. – 7с.
4. Алексеева, И. С. Введение в переводоведение: учебное пособие. – 2-е изд., М. : Академия, 2006. – 348 с.
5. Арутюнова Н.Д. Падучева Е.В. Истоки, проблемы и категории прагматики // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: «Лингвистическая прагматика». - М.: Прогресс, 1985. 3-42с.
6. Б. П. Найдов. Ещё раз о прагматическом аспекте лексического значения. – Исследования по романской и германской филологии. – Киев, 1977. – 15-bet.
7. Баженова И.С. Емоции, прагматика, текст. М.: Издательство «Менеджер», 2003. - 392 с.
8. Бархударов Л. С. Язык и перевод. М.: Международные отношения, 1975.-230 с.
9. Бархударов, Л. С. Язык и перевод : Вопросы общей и частной теории перевода. – 3-е изд. – М., Издательство ЛКИ, 2010. – 240 с.
10. В. Н. Комиссаров. Лингвистика перевода : Монография / – 3-е изд. – 1980. – 167с.
11. В. Н. Комиссаров. Слово о переводе (Очерк лингвистического учения о переводе). - М., Междунар. отношения, 1973. – 143-bet.
12. Грайс Г.П. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: «Лингвистическая прагматика». — М.: Прогресс, 1985. 217-237с.
13. Дроздова Т.В. Предпонимание в процессе понимания научного текста // Лексика в разных типах дискурса. М., 2003. 60-68 с.
14. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для институтов и факультетов иностр. яз. - М., 1990. – 209-bet
15. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
16. Латышев Л. К. Технология перевода. Уч. пособие по подготовке переводчиков. – М.: ТЕЗАУРУС, 2000. – 280с.